

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MARDONOVA SARVINOZ ORIPOVNA**

**O‘ZBEK TILIDA INDIVIDUAL-USLUBIY NEOLOGIZMLARNING  
STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI  
(Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro‘z she’riyati misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Mardonova Sarvinoz Oripovna**

O‘zbek tilida individual-uslubiy neologizmlarning struktur-semantik tadqiqi  
(Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro‘z she’riyati misolida)..... 3

**Мардонова Сарвиноз Ориповна**

Структурно-семантическое исследование индивидуально-стилистических  
неологизмов в узбекском языке (на примере поэзии Мухаммада Юсуфа,  
Усмана Азима, Фариды Афруз)..... 23

**Mardonova Sarvinoz Oripovna**

Structural-semantic study of individual stylistic neologisms in the Uzbek  
language (In the example of the poetry of Muhammad Yusuf, Usman Azim,  
Farida Afroz)..... 47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**MARDONOVA SARVINOZ ORIPOVNA**

**O‘ZBEK TILIDA INDIVIDUAL-USLUBIY NEOLOGIZMLARNING  
STRUKTUR-SEMANTIK TADQIQI  
(Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro‘z she’riyati misolida)**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.4.PhD/Fil2813 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Asadov To'liq Hamroyevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**G'aybullayeva Nafisa Izzatullayevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Abdiyev Murodqosim Bolbekovich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11. Tel.: (+99865) 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 20\_\_ -yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(20\_\_ -yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ -raqamli reyestr bayonnomasi).



**Y. Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**A.R. Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**M.K. Abuzalova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori  
(DSc), professor



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligi leksik qatlamida neologik birliklar alohida o‘rin tutadi. Zero, jamiyat taraqqiyoti, madaniyatlararo va tillararo munosabatlar, insoniyat tafakkur ko‘lamining o‘sishi yangi yangi tushunchalar hamda ularni voqelantiruvchi umumiy neologizmlar va individual neologizmlarning lug‘at qatlamida favqulodda paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqdaki, bu har bir xalq lug‘at qatlamining izchil taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur holat til istiqboli uchun xizmat qilishi bilan birga, uning milliyligiga u yoki bu darajada ta‘sir ham ko‘rsatishi mumkinligini inobatga olib, ularning ma‘no-mazmun munosabatlari doirasini tadqiq etish dolzarb vazifa sifatida kun tartibidan o‘rin oladi.

Dunyo xalqlari o‘z tilining kelajagi, milliy tabiatini saqlab qolishga intilayotgan bir davrda leksik neologizmlarga bo‘lgan munosabat, tilning ichki resursda boyishiga xizmat qiluvchi individual-uslubiy neologizmlarni tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish ancha oshdi, harakatlar ko‘lami kengaydi. Poetik nutqda uslubiy-estetik vazifa bajarishdagi imkoniyatiga ko‘ra ijodiy-shaxsiy qo‘llanishlar, ijodkor individual uslubini belgilovchi nutqiy hosilalar, badiiy niyatni yuzaga chiqarish, ifoda etish maqsadi bilan yuzaga keladigan muallif neologizmlari ijodkor asarlari tilining bir bo‘lagi sifatida, qolaversa, tilning ichki imkoniyatlar bilan boyishi borasidagi muammolar yechimida ham ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda har sohada bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar ona tilimizning tashqi va ichki imkoniyatlar asosida boyib borishiga keng yo‘l ochmoqda. Bunda o‘zbek tilining ontologik xususiyatlariga to‘la rioya etish o‘ta muhim. Zotan, “bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan yondashsak, badiiy asar tilining qudrat timsoli bo‘lgan individual-uslubiy neologizmlar, shaxsiy-ijodiy yaratmalari, ularning turli shakldagi ko‘rinishlari – morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik usuldagi so‘z yasaliş qoliplari hosilalari sanaladigan maromli va maromsiz nutqiy hosilalar, so‘z yasaliş me‘yorlariga muvofiq keluvchi original, ayni paytda, biror-bir lug‘at qamrab olmagan nutqiy yasama so‘zlarni ijodkorlar asarlari misolida to‘plash, tasnif va tavsiflash, xususan, struktur-semantik tadqiq etish, umumlashtirish va xulosa chiqarish zamonaviy ona tilimizni kuzatish uchun ham ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son va 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Til lisoniy imkoniyatlarining badiiy ijoddagi ifodasi, xususan, muayyan bir ijodkorning ijodiy-shaxsiy so‘zlari tadqiqotchilar tomonidan turli aspektda o‘rganib kelinmoqda. Individual-uslubiy neologizmlarning o‘rganilishi bevosita umumiy neologizmlar tadqiqi bilan bog‘liq. Jahon tilshunosligida neologizmlar tadqiqida uzoq tarixiy asoslarga tayaniladi. Jumladan, I.A.Boduen de Kurtene, L.P.Yefremov, R.A.Budagov, N.S.Avilova, E.A.Reyst, V.V.Vinogradov, G.G.Timofeyeva, L.P.Krisin, V.M.Aristova kabi olimlar ishlarida neologizm (o‘zlashma)lar va u bilan bog‘liq masalalar tadqiq etilgan<sup>2</sup>.

O‘zbek tilshunosligida individual-uslubiy neologizmlar, odatda, okkazional birliklar sifatida o‘rganilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarni ikkiga bo‘lib talqin etish mumkin: 1) ijodiy-shaxsiy qo‘llanishlarning nazariy jihatlar – lisoniy omillari bilan bog‘liq monografik tadqiqotlar; 2) muayyan bir ijodkor asarlarining lingvopoetik tadqiqi davomida u yoki bu darajada ahamiyat qaratilgan tadqiqotlar.

Birinchi yo‘nalish doirasida S.Toshaliyeva, M.Yo‘ldoshev, O.To‘xtasinova kabi tadqiqotchilar izlanishlarini e‘tirof etish mumkin<sup>3</sup>. Qayd etish kerakki, individual-uslubiy hosilalar borasidagi qarashlar o‘zbek tili leksikasi va leksikografiyasi hodisalari tadqiq etilgan darsliklarda ham qisman aks etgan<sup>4</sup>.

Ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda ma’lum bir shoir va yozuvchi ijodidagi yangilik bo‘yog‘iga ega individual neologizmlar turli darajada talqin etilgani kuzatiladi. Jumladan, M.Muhiddinov, S.Karimov, M.Yoqubbekova, M.Qosimova, D.Shodiyeva, D.Shodmonova kabi tilshunoslarning tadqiqotlari alohida e‘tiborga molik<sup>5</sup>. Biroq bu ishlarda individual-uslubiy neologizmlari yuzaga kelishining lisoniy omillari, bundagi shart-sharoit va zarurat, ularning shakliy va mazmuniy turlari, leksikografik talqini, xususan, neologizm-semema maxsus tadqiq etilmagan.

---

<sup>2</sup> Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – Москва: АН, 1963. – 365с.; Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1959. – 22 с.; Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – Москва: МГУ. 1989. –151 с.; Авилова Н.С. Слова интернационального происхождения в русском литературном языке нового времени (глаголы с заимствованной основой). – Москва, 1967. – 246 с.; Рейст Э.А. Зависимость формы иностранных слов от языка-источника и языков-посредников в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Таллин, 1966. – 26с.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избр. тр. – Москва, 1977. – 312 с.; Тимофеева Г.Г. Новые английские заимствования в русском языке. Написание. Произношение. СПб.: Юна, 1995. – 108 с.; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968. – 208 с.; Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – Москва, 1978. – 113 с.

<sup>3</sup>Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т., 1998. – 25 б.; Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри....дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 34-35.; Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. – Т., 2007. – 24 б.

<sup>4</sup> Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.152-157.; Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. –Т.: Fan va texnologiyalar, 2010. – Б. 111.

<sup>5</sup> Мухиддинов М., Каримов С. Гафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2003. – 126 б.; Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 120 б.; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ....дисс. автореф. –Т., 2005. – 27 б.; Қосимова М.Б. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. –Т., 2007. – 135 б.; Шодиева Д. Мухаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т., 2007. – 25 б.; Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик. (У.Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. – Самарқанд, 2019. – 141 б.; Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. – Қарши, 2019. – 128 б.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya "Til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasining tarkibiy qismiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** individual-uslubiy neologizmlar yuzaga kelishining lisoniy omillari, sabablari, derivatsion xususiyatlari, struktur-semantik tabiati, semantik shakllanish masalasi, ma'no xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Mazkur maqsaddan kelib chiqib, quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

neologik birliklarning leksik tizimdagi o'rnini belgilash;

o'zbek tilining ichki resurs asosida boyishida individual-uslubiy neologizmlar mavqeyi masalasini yoritish, so'z turkumlari kesimida unumli va unumsiz so'z yasash qoliplarini belgilash, nutqiy yasama so'zning til va nutqqa munosabatini yoritish;

individual-uslubiy neologizmlar shakllanishining lisoniy omillarini, zarurati va ko'lamini aniqlash;

individual-uslubiy neologizmlarning struktur-morfologik, struktur-sintaktik, derivatsion-semantik jihatlarini tadqiq etish, tasnif va tavsiflash;

individual-uslubiy neologizmlarning semantik-sintaktik shakllanish masalalarini ochib berish;

individual-uslubiy neologizmlarning leksikografik talqinini amalga oshirish, lug'atlarning individual-uslubiy neologizmlarga munosabatini belgilashdir.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro'zning "Saylanma"laridagi individual-uslubiy neologizmlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** hozirgi o'zbek she'riyatidagi individual-uslubiy neologizmlarning struktur-semantik xususiyatlari, imkoniyatlari va leksikografik tavsifi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyoslash, tasniflash, tavsiflash, statistik tahlil, sistem tahlil, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

neologik birliklar tadqiq obyekti sifatida "yangi leksika", "sof yangi leksika", "faollashgan leksema", "umumtil neologizmi", "muallif (nutqi) neologizmlari", "individual nutq neologizmlari", "okkazonalizm" kabi tushunchalar sinonimik birliklar sanalsa-da, har biri ma'lum ma'noda faraqlanishi, "individual-uslubiy neologizm", "individual-stilistik neologizm", "maromsiz yasamalar" sifatida qaralib, uning tarkibiy qismi bo'lgan individual-uslubiy neologizmlarning til lug'at qatlamidagi o'rni masalasi borasidagi fikrlar takomillashtirilgan;

o'zbek tili so'z yasalishi borasidagi ayrim munozarali o'rinlar, so'z turkumlari kesimida unumli va unumsiz so'z yasovchi affikslar chegarasi, so'z yasovchi qoliplarning individual-uslubiy neologizmlarga munosabati [ot+la/lan/lash], [ot+chi], [ot+dosh], [ot+zor], [ot+furush], [ot+kor], [ot+iston], [ot+li], [ot+siz], [ot+ona], [ot+chasiga] so'z yasash qoliplari, bunda so'z yasash asosi sifatida narsa/ shaxs/ o'rin-makon/ mavhum ot va ayrim sifatlar, qo'shma shakldagi individual-uslubiy neologizmlarning so'z yasash qoliplari sifatida [ot+ot], [ot+fe'l], [fe'l+ot], [sifat+ot], [umum/xush+ot], [ot+zoda/bardor/dil] kabilar aniqlangan.

individual-uslubiy neologizmlar shakllanishining lisoniy omillari, bundagi shart-sharoitlar, ko'lami, ahamiyati, ifoda imkoniyatlari, derivatsion xususiyatlari: sodda, qo'shma birliklar, frazeologik-neologizm, individual-uslubiy neologizmlar "favqulodda

soʻz yaratishga boʻlgan ehtiyoj”, “sheʻriyatda qofiyani va sheʻriy ritmni taʼminlash”, “bir umumiy maʼno ostidagi soʻzlarga boʻlgan ehtiyoj”, “original murojaat birliklarini yaratishga boʻlgan urinish”, “soddalanish mahsuli sifatidagi”, “til birliklarining integrativ munosabati taʼsiri”, “varvar soʻzlardan chekinish mahsuli” kabi turlicha neologik birliklar Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afroʻz sheʻriyati misolida asoslangan;

oʻzbek sheʻriyati misolida neologizm-semema, individual-uslubiy koʻchimlar, erkin oʻxshatishlar, individual-uslubiy neologizmlarning leksikografik tadqiqi toʻgʻridan toʻgʻri umumiy yoki maxsus lugʻatlarda belgilanishi emas, balki dastlab individual nutq neologizmlari izohli lugʻati orqali saralanib, yangi avlod izohli hamda imlo lugʻatlarida oʻz belgisiga ega boʻlishi, shuningdek, katta hajmli tezauruslargacha kirib borishi mumkinligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

lisoniy va nutqiy yasama soʻzlar hosil boʻlishi, bunda soʻz yasash qoliplarining u yoki bu darajadagi imkoniyatlarini tahlil etish jarayonida individual-uslubiy neologizmlarning til va nutqqa munosabati masalasi ochiqashtirilgan;

individual-uslubiy neologizmlar, ularning yuzaga kelish omillarini belgilash lingvopoetika, matn tilshunosligi, leksikografik tadqiqotlar bilan shugʻullanuvchilar, izlanuvchilar uchun muhim manba boʻlib xizmat qilishi dalillangan;

individual-uslubiy neologizmlarning sodda yasama, qoʻshma koʻrinishdagi nutqiy shakllari, frazeologik-neologizmlar, neologik murojaat birliklari, koʻchimlar va h.k. shakllarda uchrashi, umuman, mazkur hodisaning yaxlit til sistemasi bilan aloqadorligi asoslab berilgan;

individual-uslubiy neologizmlarning ommalashishi hamda umumxalq soʻzlari qatoridan oʻrin egallashi – okkazional maʼnodan uzuallik sari siljishi uning barqarorlashuvi bilan bogʻliqligi, ularning ijtimoiylashish boʻgʻiniga koʻtarilishi nutqiy hodisaning lisoniylashishiga zamin boʻla olishi isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qoʻllanilgan yondashuv, usullar va nazariy maʼlumotlarni berishda ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan misollar individual-uslubiy neologizmlarning struktur-semantik tabiatidan kelib chiqib izohlanganligi, mavjud muammoning aniq, yetarli yoritilganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, mavjud masala tilshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida oʻrganilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, oʻzbek tilshunosligida unumli va unumsiz soʻz yasaliishi bilan bogʻliq masalalarni yangi dalil va xulosalar asosidagi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishda, shaxsiy-ijodiy qoʻllanishlarni, ijodkorning poetik individualligini oson aniqlashda va kelgusida shu yoʻnalishdagi izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajarishda, mavjud xulosa va takliflar oʻzbek tilshunosligini ilmiy yangilik va nazariyalar bilan boyitishda ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, individual-uslubiy nutq bilan bogʻliq turli birliklar yangi avlod umumlingvistik hamda maxsus lingvistik lugʻatlar uchun boy material boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, “Oʻzbek tilida soʻz yasaliishi”, “Lingvopoetika”, “Semasiologiya”, “Matn tilshunosligi”, “Lingvistik tahlil”, “Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari”, “Leksikografiya” kabi fan va fan sohalari boʻyicha oʻquv adabiyotlar yaratish, maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

neologik birliklar tadqiq obyekti sifatida “yangi leksika”, “sof yangi leksika”, “faollashgan leksema”, “umumtil neologizmi”, “muallif (nutqi) neologizmlari”, “individual nutq neologizmlari”, “okkazionalizm” kabi tushunchalar sinonimik birliklar sanalsa-da, har biri ma’lum ma’noda faraqalanishi, “individual-uslubiy neologizm”, “individual-stilistik neologizm”, “maromsiz yasamalar” sifatida qaralib, uning tarkibiy qismi bo’lgan individual-uslubiy neologizmlarning til lug’at qatlamidagi o’rni masalasi borasidagi fikrlardan A-OT-2021-2 raqamli “Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2021-yy.) foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 19-martdagi 04/1269-son ma’lumotnomasi). Natijada keltirilgan nazariy qarashlar tibbiyotga doir atamalar lug’atining yaratilishida lingvistik ta’minot vazifasini bajargan.

o’zbek tili so’z yasalishi borasidagi ayrim munozarali o’rinlar, so’z turkumlari kesimida unumli va unumsiz so’z yasovchi affiksalar chegarasi, so’z yasovchi qoliplarning individual-uslubiy neologizmlarga munosabati [ot+la/lan/lash], [ot+chi], [ot+dosh], [ot+zor], [ot+furush], [ot+kor], [ot+iston], [ot+li], [ot+siz], [ot+ona], [ot+chasiga] so’z yasash qoliplari, bunda so’z yasash asosi sifatida narsa/ shaxs/ o’rin-makon/ mavhum ot va ayrim sifatlar, qo’shma shakldagi individual-uslubiy neologizmlarning so’z yasash qoliplari sifatida [ot+ot], [ot+fe’l], [fe’l+ot], [sifat+ot], [umum/xush+ot], [ot+zoda/bardor/dil] kabi xulosalardan AM-F3-201908172 raqamli “O’zbek tilining ilmiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda (2020-2022-yy.) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4-apreldagi №04/1-845-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida to’plangan, tahlilga tortilgan ayrim neologik so’zlar lingvistik ta’minot vazifasini bajargan.

individual-uslubiy neologizmlar shakllanishining lisoniy omillari, bundagi shart-sharoitlar, ko’lami, ahamiyati, ifoda imkoniyatlari, derivatsion xususiyatlari: sodda, qo’shma birliklar, frazeologik-neologizm, individual-uslubiy neologizmlar “favqulodda so’z yaratishga bo’lgan ehtiyoj”, “she’riyatda qofiyani va she’riy ritmni ta’minlash”, “bir umumiy ma’no ostidagi so’zlarga bo’lgan ehtiyoj”, “original murojaat birliklarini yaratishga bo’lgan urinish”, “soddalanish mahsuli”, “til birliklarining integrativ munosabati ta’siri”, “varvar so’zlardan chekinish” kabi neologik birliklar Muhammad Yusuf, Usmon Azim, Farida Afro’z she’riyati misolida O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Dolzarb mavzu” ko’rsatuvlarida foydalanilgan (O’zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining 2024-yil 21-iyundagi 01-09-100-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko’rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan va ular yangi ma’lumotlar bilan takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 18 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda (Scopus bazasidagi jurnallarda 2 ta maqola (hammualliflikda)) nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 133 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Neologizm hodisasi va leksik qatlamning boyish usullari masalasi”** deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan tashkil topgan. Bobning *“Neologizm tilshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida”* deb nomlangan birinchi faslida jahon tilshunosligida til lug‘at qatlamining chet so‘zlar hisobidan boyib borishi, undagi o‘ziga xosliklar, sabab va oqibatlari, bu boradagi yechimlarga bir qator olimlar, jumladan, I.A.Boduen de Kurtene, L.P.Yefremov, R.A.Budagov, N.S.Avilova, E.A.Reyst, V.V.Vinogradov, G.G. Timofeyeva, L.P.Krisin, V.M.Aristova kabilarning ishlari asos bo‘lganligi<sup>6</sup>, o‘zbek tilshunosligida neologizmlar (o‘zlashma so‘zlar) tadqiqi XX asrning 40-yillaridan boshlangani, mazkur hodisa, ya‘ni so‘z o‘zlashishi, ushbu so‘zlarning leksik qatlamimizdagi o‘rni masalalari V.V.Reshetov, A.K.Borovskiy, F.Abdullayev, A.K.Borovkov, R.Doniyorov, J.Sharipov, S.Akobirov, E.Begmatov, K.Yusupova, D.Hasanova, N.Qodirova va boshqalar tomonidan o‘rganilganligi<sup>7</sup> haqidagi ma‘lumotlarni qamrab olgan. O‘zbek tilshunosligidagi mazkur izlanishlarda umumiy neologizmlar (individual-uslubiy neologizmlardan tashqari hodisa) tadqiqi amalga oshirilganligi sababli ularga maxsus to‘xtalmadik. Nisbatan yangi o‘zlashmalarning lug‘at qatlamimizdagi o‘rni masalasi A.To‘raxo‘jayeva, U.Qo‘ziyev, N.Isakova, E.Davlatova kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan<sup>8</sup>.

I.A.Boduen de Kurtene o‘zlashma so‘zlar haqida fikr bildira turib, dunyoda faqat bir xalqqa tegishli sof til yo‘qligini hamda bo‘la olmasligini ta‘kidlaydi<sup>9</sup>. Rus tilshunosligi doirasida mazkur masalaga bag‘ishlangan L.Yefremovning nomzodlik dissertatsiyasida o‘zlashma so‘zlar, ularning o‘zlashish sabablari tahlilga tortiladi. Shuningdek, so‘z o‘zlashtirish va kalkalash hodisalarini ajratib ko‘rsatishga erishadi<sup>10</sup>. Tilshunos olim

---

<sup>6</sup> Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – Москва: АН, 1963. – 365 с.; Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1959. – 22с.; Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – Москва: МГУ. 1989. – 151 с.; Авилова Н.С. Слова интернационального происхождения в русском литературном языке нового времени (глаголы с заимствованной основой). – Москва, 1967. – 246 с.; Рейст Э.А. Зависимость формы иностранных слов от языка-источника и языков-посредников в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Таллин, 1966. – 26 с.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избр. тр. – Москва, 1977. – 312 с.; Тимофеева Г.Г. Новые английские заимствования в русском языке. Написание. Произношение. СПб.: Юна, 1995. – 108 с.; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968. – 208 с.; Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – Москва, 1978. – 113 с.

<sup>7</sup> Шукуров О. Замоновий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талкини. Монография. – Қарши: INTELLEKT нашриёти, 2022. – Б. 20-33.

<sup>8</sup> Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Т.: 2012. – 26 б.; Қўзиёв У.Я. Ўзбек тилидаги изохли луғатларда ўзлашма сўзлар тадқиқи: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Фарғона. 2018. – 44 б.; Исакова Н. Мустақиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. ...дисс. – Самарқанд: 2021. – 143 б.; Давлятова Э. Мустақиллик даври ўзбек тилидаги ғарбий европа ўзлаш-маларнинг маданиятлараро тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз: 2021. – 58 б.

<sup>9</sup> Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – Москва: АН, 1963. – С.16.

<sup>10</sup> Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1959. – 22 с.

A.V.Shcherba tomonidan “tillarning o‘zaro ta’siri” atamasi o‘z vaqtida muomalaga kiritilishi<sup>11</sup> neologizmlar bilan bog‘liq yangi-yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ldi, deyish mumkin.

Til lug‘at qatlami nafaqat leksemalar, balki frazeologik birliklar, tasviriy vositalar hamda yangicha ma’no ifodalar bilan ham to‘lishib boradi. Til lug‘at qatlamida neologizm-frazemalarning ham o‘z o‘rni, shu bilan birga, shakllanish asoslari bor<sup>12</sup>. Tadqiqotchi L.Parsiyeva frazeologik neologizmlar leksik neologizmlarga nisbatan tez ommalashishini ta’kidlaydi. Uning bu xususiyatini davriy matbuot bilan bog‘laydi. Tadqiqotchi ta’kidlaganidek, “davriy matbuot (ijtimoiy tarmoqlar – M.S.) tilidagi yangi tendensiyalar, shu jumladan, yangi frazeologik birliklar (masalan: *ketmoni uchmoq* va b.) ning paydo bo‘lishi va tarqalishida asosiy vosita bo‘lmoqda<sup>13</sup>.

N.Isakova mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan neologizmlarni “Xalq so‘zi” gazetasi misolida o‘rganar ekan shunday xulosaga keladi, tadqiqotchi fikricha, o‘zlashma neologizmlar 1991–1996-yillarda gazeta matnlarida 5 foiz, 1997–2015- yillar nashrlarida 45 foiz, 2016–2018-yillar nashrlarida 55 foizni tashkil etgan<sup>14</sup>.

Bobning ikkinchi fasli “*O‘zbek tilida neologizm turlari va ularning yondosh hodisalarga munosabati*” deb nomlanadi. Manbalarda neologizmlar dastlab quyidagicha tasniflanadi: a) lug‘aviy neologizmlar; b) grammatik neologizmlar. Shu bilan birga, lug‘at qatlamimizda frazeologik neologizmlar ham kuzatiladi. Manbalarda neologizm “yangi leksika” termini ostida ham o‘rganiladi. “Yangi leksika” ikkiga bo‘lib talqin qilinadi: a) sof yangi leksema; b) faollashgan leksema.

“Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm ko‘pchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda tuzilgan bo‘lsa va tilda ma’lum ma’noni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shundagina individual nutq neologizmi umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi”<sup>15</sup>. Bu ta’rif neologizm va individual neologizmlar chegarasini oydinlashtirishda qo‘l keladi. Har ikkala neologizm ko‘rinishining yangilik bo‘yog‘i shartli, ya’ni “yangilik maqomi” ma’lum bir vaqt oralig‘ida bo‘ladi. Bugun yangilikka daxldor so‘z erta-indin shu xususiyatini yo‘qotishi, bora-bora tarixiy so‘zga ham aylanib qolishi mumkin. Tilshunos olim M.Abuzalova ta’kidlagani kabi “...arxaizmlar o‘tmish qoldiqlari, neologizmlar esa kelajak kurtaklaridir”<sup>16</sup>.

Neologizmlarni dastlab quyidagicha tasniflash aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi: a) umumiy neologizmlar; b) individual-uslubiy neologizmlar. Individual-uslubiy neologizmlarni ayni paytda ichki tarkiblash (neologizm-leksema, neologizm-semema; morfologik, sintaktik tarkibli neologizmlar; frazeologik neologizmlar va h.k.) ham mumkin<sup>17</sup>.

<sup>11</sup> Щчерба Л.В. О понятии смешения языков // Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т.1. –Ленинград, 1958. – С. 44.

<sup>12</sup> Ibragimova M. Neologizm frazemalarning tildagi xususiyatlari// Научный импульс. Международный научный журнал. Част 1. №8. 2023, март. – В. 254-256.

<sup>13</sup> Парсиева Л.К., Гацалова Л.Б. Особенности фразеологических неологизмов// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. –Т., 2014. – № 9-3. – С.71.

<sup>14</sup> Исакова Н. Мустакиллик йилларида ўзбек тилига кириб келган хорижий сўзларнинг таркибий-мазмуний таҳлили (“Халқ сўзи” газетаси материаллари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD) ...дисс. – Самарқанд, 2021. – Б. 75.

<sup>15</sup> Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 153.

<sup>16</sup> Абузалова М. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик қурилма: Филол. фан. докт. (DSc) ...дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 33.

<sup>17</sup> Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 152-157.

Badiiy asarda uslubiy-estetik vazifa bajarishdagi imkoniyatiga ko'ra individual nutq neologizmlari yuqoriroq mavqe egallaydi. Bu borada M.Yo'ldoshev shunday yozadi: "Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan neologizmlar vaqti-vaqti bilan tilda paydo bo'lib tursada, badiiy matn uchun ko'p ham ahamiyatli emas. Badiiy matn uchun ijodkorning o'zi tomonidan badiiy niyatini ifodalash maqsadi bilan yasalgan, yaratilgan individual neologizmlar estetik qiymatga molikdir"<sup>18</sup>.

Fanda mavjud "individual til", "individual uslub" tushunchalari "individual-uslubiy neologizm" terminidan ko'lami, funksional-semantik xususiyatiga ko'ra kengligi shu hodisa borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham kuzatiladi<sup>19</sup>.

Rus tilshunosligida individual-uslubiy neologizmlarning nazariy jihatlarini V.Kamenskiy asarlari misolida kuzatgan tadqiqotchi D.Xalyavina XX asrda ijod etgan V.Mayakovskiy, V.Xlebnikov, V.Kamenskiy, D.Burlyak, I.Severyanin kabilar ijodida mazkur hodisaning yorqin ko'rinishlarini bayon etadi<sup>20</sup>. Tadqiqotchi bu hodisani "individual-muallif so'zlari" tarzida qo'llashni ma'qul ko'radi.

D.Xalyavina til lug'at qatlamiga ijodiy yondashgan holda yangidan yasalgan so'zlar (новообразование) badiiy adabiyotda o'ta muhim ahamiyat kasb etishini, bu kabi individual-muallif yangi so'zlari muallifning dunyoqarashi, dunyoga nazari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Individual-muallif yangi so'zlari, odatda, ikki hodisa (asos va affiks) chatishuvidan yuzaga keladigan okkazional holat hisoblanib, o'zida g'oyaviy-mazmunliy yuk tashishini aytadi<sup>21</sup>.

Ko'pgina adabiyotlarda okkazional va individual nutq neologizmi bir hodisa sifatida ta'riflanadi. O.Axmanovanning lingvistik terminlar lug'atida okkazionalizmga uzual qo'llanishning teskari ko'rinishi tarzida qaralgan va u individual nutq natijasi sifatida baholangan<sup>22</sup>.

O'zbek tilshunosligida okkazionalizmning nazariy jihatlarini – lisoniy va nolisoniy tabiati S.N.Toshaliyeva tomonidan o'rganilgan<sup>23</sup>, okkazional so'zlarning badiiy-estetik xususiyatlarini O.To'xtasinova maxsus tadqiq etgan<sup>24</sup>.

Tadqiqotchi D.Shodmonova til/nutq/me'yor hamda individual birliklar munosabati haqida fikr bildirib, til uchun har bir ijodkorning individual uslubi xarakter kasb eta olishini aytadi. "O'zbek she'riyatida, – deb yozadi tadqiqotchi, – an'anaviy poetik leksika tarkibida qaraluvchi ko'plab birliklar adabiy til uchun me'yor sanalmaydi. Masalan, adabiy me'yor chizig'idan tashqarida deb qaraluvchi, biroq she'riy nutqda faol uchraydigan qator birliklar borki, bu umumiylik sifatidagi adabiy tilni xususiylik sifatidagi she'riy nutqqa zid qo'yadi"<sup>25</sup>.

Kuzatishlarimiz natijasi o'laroq okkazionalizm, neologizm, individual-uslubiy

<sup>18</sup> Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри....дисс. автореф. –Т., 2009. – Б. 34.

<sup>19</sup> Қосимова М.Б. Бадий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. – Т.: 2027. – 135 б.; Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик. (У.Азим шеърияти мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. – Самарқанд, 2019. – 141 б.

<sup>20</sup> Халыгина Д. Индивидуально-авторские новообразования в идиолекте В.Каменского: структурно-семантический и функционально-прагматический аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Белгород, 2011. – С. 3.

<sup>21</sup> Халыгина Д. Индивидуально-авторские новообразования в идиолекте В.Каменского: структурно-семантический и функционально-прагматический аспекты: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Белгород, 2011. – С. 5-6.

<sup>22</sup> Ахманова С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Сов. энци., 1966. – С. 284.

<sup>23</sup> Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т. 1998. – 25 б.

<sup>24</sup> Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. – Т. 2007. – 24 б.

<sup>25</sup> Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеъриятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида): Филол. фан. номз. ....дисс. – Қарши, 2019. – Б. 30.



neologizmlarning bir-biriga munosabati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin. **Mazkur hodisalarning uyg'unligi** shundaki, har uchulasi:

- yangilik bo'yog'iga ega; g'ayriodatiy birlik;
- lug'atlar qamrab olib ulgurmagan;
- yangicha grafik shaklda hamda ma'no-mazmunda bo'ladi.

Xususiyligi shundaki, **neologizm**: yangiligi nisbiy holatda bo'ladi; ham nutqiy, ham lisoniy hodisa sanaladi; asosan, o'zlashma, qisman o'z qatlamga tegishli bo'ladi.

**Okkazionalizm**: odatda, yasama so'z holida bo'ladi (*oyoqlibos, sukutchilar, paysalchilar, karamkor, kiyimgoh, yomg'irxat, xalaxat*<sup>26</sup>); nutqiy hodisa sanaladi; g'ayriodatiy, ya'ni bir marta qo'llanishga mo'ljallangan bo'ladi; shaxsiy so'z yasash va qo'llash bilan bog'liq; uzuallik va umumadabiy maromga nisbatan g'ayriodatiy, maromsiz bo'ladi<sup>27</sup>.

Individual-uslubiy neologizmlarining xususiyati ham yuqoridagi fikrlar bilan qisman uyg'un. Har qanday holatda har ikkala hodisa ham til ijodkorligi bilan bog'liq, albatta. Ta'kidlash lozimki, **individual-uslubiy neologizmlar**: uslub talabi bilan yuzaga keladi; badiiy uslub ko'rinishi sanaladi; poetik aktuallik uchun xizmat qiladi; til me'yorlari doirasida (maromli) bo'ladi; odatda, lug'at qatlamining ichki boyishiga xizmat qila oladi; lisoniylashish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Birinchi bobning "*O'zbek tili leksik qatlamining boyish usullari xususida*" deb nomlangan uchinchi faslida o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi masalasi, yasama so'zning til va nutqdagi o'rni, bu boradagi yechimtalab masalalar haqida so'z boradiki, mazkur kuzatishlar muallif neologizmlarning struktur-semantik tadqiqiga imkoniyat yaratadi.

O'zbek tilshunosligida so'zning, jumladan, yasama so'zning til va nutqqa munosabati borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan<sup>28</sup>. Xususan, A.Hojiyevning "*O'zbek tili so'z yasalishi tizimi*" asari o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi masalasini bir qadar yangi bosqichga olib chiqdi<sup>29</sup>. O'zbek tilshunosligida so'z yasalishi haqidagi nazariy fikrlarni to'ldirishga, bu boradagi qarashlarni yangilashga xizmat qila oladigan tadqiqotlar sirasiga Sh.Rahmatullayev va H.Ne'matovning izlanish natijalarini e'tirof etib o'tish lozim<sup>30</sup>.

Individual, ya'ni muallif neologizmlarining tadqiqi bevosita va bilvosita o'zbek tilida so'z yasash ma'nosi, so'z yasash usullari, sinxron va diaxron so'z yasalishi, unumli va unumsiz so'z yasash qoliplari, yasama so'zning til va nutqqa munosabati, yasama hamda yasalgan so'z, leksemalashish hodisani yuzaga chiqaruvchi omillar kabi bir qator masalalar tadqiqi bilan uyg'un kechadi. Ma'lumki, o'zbek tilida affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so'z yasalishi faol sanaladi. Biroq bu jarayonda ba'zan maromsiz yasalishlar – okkazional qo'llanishlar ham uchrab turadi. Odatda, shoir va yozuvchilar ijod mahsuli sifatida yuzaga chiqadigan nutqiy yasama so'zlar uslub talabi, fikr ifodasidagi ehtiyoj mahsuli bo'lib yuzaga chiqadi.

Dissertatsiyaning **"Individual-uslubiy neologizmlar struktur shakllanishining**

<sup>26</sup> Misol olingan manba: Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т., 1998. – Б. 15-16.

<sup>27</sup> Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т. 1998. – Б. 14.

<sup>28</sup> Неъматов Х. Қайта қуриш стратегияси ва ўзбек синхроник тилшунослигининг вазифалари (Тил ва нутқ дифференциацияси) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, –№3. – Б. 27-31; Неъматов Х. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988, –№6. – Б. 38-43; Нурмонов А., Саримсоқов Б. Тил системасида сўзнинг ўрни ва сўзларни туркумларга ажратиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, – №5. – Б. 9-23.

<sup>29</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Т.: Ўқитувчи, 2007. – 168 б.

<sup>30</sup> Неъматов Х. Сўз ясаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, – №1. – Б. 14-18.

**lisoniy omillari va ifodasi**” deb nomlangan ikkinchi bobi ham uch faslni o‘z ichiga oladi. *“Individual-uslubiy neologizmlarning affiksatsiya va kompozitsiya usulida yuzaga kelish shart-sharoitlari”* deb nomlangan bobning birinchi faslida so‘z turkumlari kesimida individual-uslubiy neologizmlarni yuzaga keltiruvchi faol so‘z yasovchi affikslar tahlilga tortilgan. Ta’kidlash lozimki, individual-uslubiy neologizmlarning affiksatsiya usulida yuzaga kelishi, bundagi zarurat va imkoniyatlar unumli so‘z yasash qoliplari faoliyati, ularni kuzatish bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli bu o‘rinda so‘zlarning affiksatsiya usulida yasashi darajasi, unumli-unumsiz so‘z yasash qoliplarini kuzatishni, tahlilga tortishni, tavsif va tasnif etishni maqsad qiladiki, mazkur hodisa tadqiqi individual-uslubiy neologizmlar haqida asosli xulosalar chiqarishimizga sharoit yarata oladi<sup>31</sup>.

Ma’lumki, *fe’l yasovchi affikslar* sifatida manbalarda bir qancha affikslar sanaladi. Ammo bularning aksariyati allaqachon o‘z unumdorligini yo‘qotgan. Masalan, *-illa (-ulla)* affiksi faqat taqlid so‘zlardan *fe’l yasashga* xizmat qilishini izohlashga hojat bo‘lmasa kerak (*taqillamoq, lovullamoq* kabi). Istalgan taqlid so‘zdan mazkur shakl orqali *fe’l yasash* mumkin. Bu manbalarda keng izohlangan. Mazkur affiks ayni kunda yangi *fe’l yasashi* uchun, avvalo, yangi taqlid so‘z kerak bo‘ladiki, shundagina bu affiks *fe’l yasashi* mumkin bo‘ladi. *-illa (-ulla)* affiksining “yashovchanligi” bevosita taqlid so‘zlar rivoji bilan bog‘liq. Bu qo‘shimcha faollashishi uchun, avvalo, taqlid so‘zga ehtiyoj sezadi.

Manbalarda 50 ga yaqin ot yasovchi affiks borligi aytiladi. Ammo hozirgi kunda bu affikslarning hammasi ham faol, unumli emas. Ularning aksariyati so‘z yasash uchun xizmat qilmay qo‘ygan. Masalan, *-zor* affiksi joy nomini yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, asosan, o‘simlik otlariga qo‘shilib keladi (*gulzor, bodomzor, tikanzor, olmazor* va h.k.). Aslida, bu qo‘shimchaning grammatik tabiatiga asoslanadigan bo‘lsak, *-zor* affiksi yangi so‘z yasashi uchun lug‘at qatlamimizga biror bir yangi o‘simlik nomi paydo bo‘lishi kerak, shundagina u faollashadi. Masalan, *ananas, banan, kivi* va b. mevalar yoki turli xil, manzarali daraxt ko‘chatlarining yurtimizda yetishtirilishi *-zor* affiksini faollashtirishi mumkin.

Umuman, tadqiqotimiz asosi bo‘lgan ijodkorlar asarlari miqyosida ayta olamizki, affiksatsiya usulida yangi so‘zlar yasashida *-la, -lan, -lash; -chi, -dosh, --zor, -kor, -iston, -furush; -li, -siz, be-, -simon; -cha/larcha, -ona* kabi affikslar faoliyati nisbatan keng.

Badiiy asarda affiksatsiya usulida yasalgan nutqiy hosilalar bilan birga, original qo‘shma so‘zlar ham uchraydi. Jumladan, *tillabarmoq, yo‘lbarsyurak, sirtlonpanja, kiyiknigoh, shertirnoq* (M.Yusuf), *muznafas, sho‘rsheva, toshtaqdir* (U.Azim) kabilar bunga misol bo‘la oladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Individual-uslubiy neologizmlarning vujudga kelish zarurati”* deb nomlangan bo‘lib, unda mazkur hodisaning yuzaga kelish sabablari, lisoniy omillari tahlil etilgan. O‘zbek tilshunosligida neologizm hodisasi tarkibida “yangi leksika”, “sof yangi leksika”, “faollashgan leksema”, “umumtil neologizmi”, “muallif neologizmlari”, “okkazonalizm”, “individual-muallif neologizmlari” va h.k. atamalar uchraydi. Shuningdek, “individual-uslubiy neologizmlar”, “individual-stilistik neologizm” (A.Hojiyev, N.Mahmudov), “maromsiz yasamalar” (S.Toshaliyeva) kabi qo‘llanishlar ham kuzatiladi.

Individual-uslubiy neologizmlarning paydo bo‘lishi quyidagilar bilan bog‘liq:

**I. Favqulodda so‘z yaratishga bo‘lgan ehtiyoj natijasi o‘laroq vujudga kelgan individual-uslubiy neologizmlar.** Badiiy niyatini ifoda etish, voqelik va tasvirni yorqinroq

<sup>31</sup>Asadov T., Mardonova S. O‘zbek tilida faol so‘z yasashi va muallif nutqi neologizmlari. Monografiya. –Germaniya: GlobeEdit. 2021. – B. 23-54.

ifoda etish, qalb kechinmalaridagi ruhiy tugʻyonlarni yuzaga chiqarish, mavjud holatga oʻquvchini ishontrish, estetik zavq ulashish uchun mavjud soʻzlardan ham toʻlaonliroq ifodaga ega soʻz qidiradi, bu ayni haqiqat. Fransuz adabiyotshunosi R.Bartning soʻzlari bilan aytadigan boʻlsak, “agar asarlarda faqat lugʻatlarda qayd etilgan muayyan bir soʻlar va maʼnolar bilangina ish koʻrilsa edi, badiiy adabiyot ham boʻlmas edi”<sup>32</sup>.

Favqulodda soʻz yaratishga boʻlgan ehtiyoj natijasi oʻlaroq vujudga kelgan neologizmlar ikki omil bilan belgilanadi. Birinchidan, individual-uslubiy neologizmlar kitobxonga estetik zavq ulashish maqsadi bilan – subyektiv omil bilan yaratiladi. Ikkinchidan, ijodkor mavjud soʻz boyligiga qanoat qila olmasligi mahsuli sifatida paydo boʻladi. Masalan, Muhammad Yusuf ijodidan kuzatamiz: *Men shoir emas, men nazmboz kosib/ Sheʼrim shuhratimga emas munosib.* (“Yalpiz”) Usmon Azim sheʼriyatidan: *Kurashlarda garchi yondim/ Shukr vijdon beyamoq/ Chizavergin iymonimni/ Iymongoh – yurak oppoq.* (“Maqsud Shayxzoda”) *Dil yarim gʻussadan toʻlmas hech qachon/ Zulmatgoh xonaning ichida yorim.* (“Men yoʻqman”) Qani ketdik/ Shahri *shovqinzor/ Boshingizni qoʻymish gangitib.* (“Boysun haqida gʻamgin ballada”).

Favqulodda koʻchimlar, oksyumoron birliklar, frazeologik birlik, parafrazalar yaratish ham individual-uslubiy neologizmlarning tarkibiy qismi sanaladi.

**II. Sheʼriyatda qofiyani taʼminlash maqsadi bilan yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlar.** Shoirlar qofiya vositasida kitobxonni sheʼrdagi asosiy fikrga yetaklaydi. Mazkur holatni ikki jihat bilan baholash mumkin: 1) til lugʻat qatlamida mavjud soʻzga hamohang – ohangdosh soʻzning yoʻqligi bois sunʼiy soʻz yaratish; 2) muayyan bir mavjud qofiyadosh soʻzga koʻna qolmay, yangi, ohorli (nutqiy) soʻz yaratishga boʻlgan havasning ustunligi.

Farida Afroʻzning “Bilsang edi” sheʼrida quyidagicha misralar kuzatiladi: *Soʻngra, soʻngra esa ketar edik, sochlarimdek tun oralab/ Ketar edik bu dunyoni boshdan oyoq oʻoralab...* Muallif birinchi misralardagi *oralab* soʻziga ikkinchi misrada shunga semantik-struktur jihatdan hamohang *oʻoralab* soʻzini qoʻllashni maʼqul koʻradi. Ijodkor bu bilan qay darajada poetik maqsadga erisha olgan buni kitobxon baholaydi, albatta.

**III. Sheʼriy ritmni taʼminlash maqsadi bilan yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlar.** Baʼzida mazkur holatni taʼminlash maqsadida ham shaklan, ham mazmunan yangi-yangi soʻzlar yuzaga keltirilganligiga guvoh boʻlamiz. Masalan, Farida Afroʻzning “Vatan haqida bayot” sheʼridagi “*beitob*” (itob – taʼna) affiksatsiya usulida yasalgan soʻz ham qofiyani, ham sheʼriy ritmni taʼminlash maqsadi bilan yuzaga kelgan: *Toʻgʻrisi, sen haqda sheʼr bitmoq azob/ Qirq besh yil ingradim, jimjit, beitob.* (“Vatan haqida bayot”)

**IV. Bir umumiy maʼno ostidagi soʻzlarga boʻlgan ehtiyojni taʼminlash uchun yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlar.** Ijodkor “vaziyat hamda sheʼriy ritm tuzilishini inobatga olib”<sup>33</sup> muayyan bir sinonimik qatorni boyitishga ham sababchi boʻladi. Bu ijobiy holat aslida, chunki mazkur holat oʻzbek tili sinonimlar guruhi boyishini taʼminlashga xizmat qila oladi. Usmon Azim ijodidan: *Hammasi alpsifat/ Hammasi polvon.* (U.Azim) Misralardagi *polvon* va *alpsifat* soʻzlari nutqiy sinonimlar hisoblanadi. *Alpsifat* soʻzining, [ot+sifat] qolipi hosilasining lugʻatlardan oʻrin egallamagani ham buni isbotlaydi<sup>34</sup>.

<sup>32</sup> Iqtibos olingan manba: Юлдашев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри....дисс – Т., 2009. – Б. 163.

<sup>33</sup> Каримов С. Зулфия асарлари лингвостилистикаси. Монография. – Самарканд: СамДУ нашри, 2006. – Б. 25.

<sup>34</sup> Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати.–Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 15.

**V. Original murojaat birliklariga bo'lgan ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan individual-uslubiy neologizmlar.** Murojaat birliklari ikki ko'rinishda uchraydi: 1) erkin murojaat birliklari; 2) turg'un murojaat birliklari. Badiiy adabiyotda muallif (oshiq)ning yorga qarata qo'llagan individual (erkin) murojaat birliklari salmoqqa ega<sup>35</sup>. Original murojaat birliklari o'quvchini bexosdan jalb qila olishi bilan xarakterga ega. Usmon Azim ijodidan: Shivirlayman besamar, takror/ *Qiblanamom*, yo'l ko'rsat menga. ("Rashk, g'iybatning to'lqinlarida") Sen shahar bag'rida tomchiday singib ketding/ Daryolarni simirib to'yamayapman/ *Tomchim*, qaydasan? ("Ularni tasodif ajratdi...")

**VI. Soddalanish mahsuli sifatida hosil bo'lgan individual-uslubiy neologizmlar.** Soddalanish asosida yuzaga keladigan individual-uslubiy neologizmlarning she'riyatdagi ko'rinishi ikki omil: shakliy-mazmuniy qisqarish yoki ellipsis hodisasi bilan bog'liq bo'ladi. Misollarni kuzatamiz: *Kimda – ketar husn, kim xush bo'y tarar/ Lolani xokisor rayhon qutqarar*. (U.Azim, "Iymon qo'shig'i") Mazkur misralardagi *tarar* so'zini *taralar* so'zining shakliy qisqargan ko'rinishi sifatida baholash mumkin. Ushbu so'z she'riy talablarga muvofiq holda shoir tomonidan sun'iy soddalashtirilgan. Xuddi shu kabi holatni Usmon Azim ijodidagi *tizgacha* (tizzagacha), *fojelar* (fojealar) kabi so'zlarda ham ko'ramiz.

**VII. Til birliklarining integrativ munosabati ta'sirida reallashgan nome'yoriy individual-uslubiy neologizmlar.** Yangi so'z yasash juda mas'uliyatli yumush, bunda ijodkordan yuksak qobiliyat, keng dunyoqarash talab etiladi. Individual-badiiy neologizmlar – subyektiv ehtiyoj mahsuli. Unga matndagi turli til birliklarining integrativ munosabati ta'sirida reallashadigan turli badiiy ma'nolarni yuklaydi<sup>36</sup>. Masalan:

*So'rsang, sevinchimdan o'kinchim ko'proq*

*Sendan-da kumushroq sochimdagi oq.* (M.Yusuf, "Yangi yil kechasi")

Ma'lumki, *-roq* affiksi sifatning daraja shakli bo'lib, shu so'z turkumi doirasidagi asliy sifatlar bilangina birikib keladi. *-roq* affiksining ot leksemalarga birikishi adabiy til uchun nome'yoriy hol sanaladi.

Qofiyani ta'minlash maqsadi bilan yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlarning ham ba'zida nome'yoriy holatda qo'llanishi kuzatildi. Masalan, Usmon Azimning "Endi bizga ishq yo'llari xatarlidir" nomli 5 bandli she'rida qofiyadosh so'zlar sifatida *xatarli, kadarli, xabarli, qadarli, ajdarli, yutarli, zaharli, saharli* kabilar qo'llangan bo'lib, shulardan *qadarli, saharli* so'zlari qofiyani ta'minlash maqsadi bilan – sun'iy ravishda yuzaga keltiriladi: *Endi bizga ishq yo'llari xatarlidir/ Ma'yuslidir, og'riqlidir, kadarlidir/ Ibtidomiz intihodan xabarlidir/ Quvonchi oz, g'ami o'lim qadarlidir/ ...Kelgin, so'ng bor ishonaylik yolg'onlarga –Ki, sevgining yo'li mudom saharlidir.*

Usmon Azimning "*Topib kelgan yirtqichlar/ Yuraklarni yirtgichlar*" ("Izillab yovuq-yovuq") misralaridagi "yirtgichlar" birligi haqida ham shuni aytish mumkin.

Ikkinchi bobning "*Individual-uslubiy neologizmlarning tarkibiy tadqiqi*" deb nomlangan uchinchi faslida mazkur hodisaning tuzilish turlari tadqiq etilgan:

**I. Tub holdagi individual-uslubiy neologizmlar.** Mazkur tarkibga she'riy matnlardagi soddalashtirilgan (jumladan: "*tarar*" (*taralar*), "*tiz*" (*tizza*), "*foje*" (*fojea*) – U.Azim) so'zlarnigina misol qilib keltirish mumkin.

**II. Affiksatsiya usulida yasalgan individual-uslubiy neologizmlar.** Masalan: *navro'zfurush, oftobsimon* (M.Yusuf), *shovqinzor, alamkor, taqdirdosh* (U.Azim),

<sup>35</sup> Asadov T., Azimova A. Toshpo'lat Ahmad she'riyati lingvostilistikasi. Monografiya. – B: Durdona, 2023, – B. 93.

<sup>36</sup> Юлдашев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. ...дисс. афтореф. –Т., 2009. – Б. 34-35.

*odamzor, osmoniy, daryolashmoq* va b. (F.Afro‘z) Bu jarayonda ko‘pincha [ot+la/lan/lash], [ot+chi], [ot+dosh], [ot+zor], [ot+furush], [ot+kor], [ot+iston], [ot+li], [ot+siz], [be+ot], [ot+ona], [ot+cha/chasiga] so‘z yasash qoliplari ishtirok etadi. So‘z yasash asosi sifatida narsa/shaxs/o‘rin-makon/mavhum otlar keladi.

Ayrim hollarda lug‘aviy shakl yasovchilar bilan yuzaga kelgan individual-uslubiy neologizmlar ham uchraydi. Mazkur holat *-roq* qo‘shimchasining ot bilan birga kelishida kuzatildi: *Kuzak, sensan, sarhisob/ Burchsan, shondan sharafrq/ Ey umr, sen shab qol/ Bahordan-da bahorroq*. (F.Afro‘z, “Qo‘shig‘ingni ayt”)

**III. Kompozitsiya usulida yasalgan individual-uslubiy neologizmlar.** Qo‘shma shakldagi individual-uslubiy neologizmlarning aksariyati ot va sifat turkumi ulushiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Muhammad Yusuf ijodida *tillobarmoq* (“Sog‘indim”), *yo‘lbarsyurak, sirtlonpanja* (“Maslahat”), *kiyiknigoh* (“Oq ro‘mol qizlar”) Usmon Azim ijodida *muznafas* (“Qush haqida ballada”), *Laylisheva, sho‘rsheva* (“Ayol maktubi”), *ho‘lzulmat* (“Deraza haqida ballada”), Farida Afro‘z ijodida esa *ishqtalab* (“Kel, deding”), *qunduzqosh*. (“Kiprigimga ilingan yosh”) kabilar kuzatildi. Qo‘shma shakldagi neologizmlarning so‘z yasash qolipi sifatida [ot+ot], [ot+fe‘l], [fe‘l+ot], [sifat+ot], [umum/xush+ot], [ot+zoda/bardor/dil] kabilar keladi, qo‘shma so‘z komponentlari sifatida narsa/shaxs/hayvon/mavhum otlar ishtirok etadi.

**IV. Juft va takror shakldagi individual-uslubiy neologizmlar.** Nafaqat badiiy adabiyotda, balki adabiy tilning turli uslublarida ham mazkur shakldagi so‘zlarning vujudga kelishi sekin kechadi. Muhammad Yusufning “Yolg‘onchi yor” she‘rida *karvon-karvon, jayron-jayron, hayron-hayron, vayron-vayron* va b. misollarga duch kelamiz. Mazkur takror so‘zlar [ot+ot], [sifat+sifat] qolipi hosilalari sanaladi. Yana bir misol: *Qochmay elatning tanti-mardlari/ Kelsa ham do‘zaxning balo-badlari*. (U.Azim)

**V. Individual-uslubiy frazeologik neologizmlar.** Neologizmlar bilan bog‘liq manbalarda “frazeologik neologizm” atamasi ham keng qo‘llanadi. Muhammad Yusuf ijodidan: *Joningga jon bo‘lmayman-u, sevaman...* (“Muhabbat”), *Qalinga tuyam ham tushib qolgan yo‘q.* (“Sodda Muhammadman...”) *Shaytonning xizmatin qilishar bari!..* (“Menday g‘aribni ham ko‘rolmaslar bor”) *O‘z qo‘lingda endi qushing, o‘zing ovla.* (“Tilak”); Usmon Azim ijodidan: *Mening izzatimni qorasan loyga.* (“Ertak”), *Bosar – qalbim tortadi mayda.* (“To‘yganmidim shodlikni ichib”); Farida Afro‘z ijodidan: *Jonimni cho‘qiydi bir mayl.* (“Har holda”) Farida Afro‘zning “Ey dunyo” she‘ridagi “osmon uzilib yerga tushmoq” iborasi shoir tomonidan “qayta ishlangan” tarzda qo‘llangan: *Uzilib ko‘k yerga tusharmi/ Xiyonat boshlaring yanchilsa.*

**VI. Individual-uslubiy tasviriy ifodalar.** Bu kabilarning yuzaga kelishi ijodkorlar – shoir va yozuvchilar xizmati bilan bog‘liq holda kechadi. Masalan, ayolga nisbatan *ojiza, mo‘jiza xilqat* kabi parafrazalar qo‘llanishi mavjud holat. Ammo Farida Afro‘z “Ey ayol” misralari bilan boshlanuvchi she‘rida mazkur parafrazalarga ko‘nmay, yangi tasvirni yaratadi:

*Ey ayol!*

*Mayliga, bir noming mushtipar bo‘lsin,*

*Ey mehr mehvari, mo‘jiza xilqat!*

*Kaftingda dunyolar go‘dakday kulsin,*

*Sen faqat bor bo‘lgin, Yor bo‘lgin faqat!* (“Ayol”)

Shoir boshqa she‘rida “fikr”ga ko‘ra *mehvar* so‘zini qo‘llaydi va ohorli tasviriy ifoda yaratishga erishadi. Kuzatamiz: *Farida Afro‘z, fikring tuzat/ Fikr dunyoning mehvari.* (“Maqolnoma she‘r”)

Muhammad Yusuf “Chimildiq” she’rida chimildiqqa nisbatan “*qo’sh yuraklar yog’dusi*”, “*baland qo’rg’on*” kabi original tasviriy ifodalarni qo’llaydi. “Tinchlik” so’zining tasviri sifatida “*eng tansiq so’z*”, “xotira”ga nisbatan “*izmdan tushgan daydi o’q*”, “orzuga ko’ra “*qaysar qanotlar*” kabilar uchraydi. Usmon Azim she’riyatida chumoliga nisbatan “*hasharotlar toshi*” tasviriy ifodasi qo’llanadi. Individual-uslubiy neologizmlarning ba’zi hollarda birikma shaklidagi ko’rinishi ham (*bir qadoq og’riq, bir yutim hayot* va b. (F.Afro’z) uchraydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Individual-uslubiy neologizmlarning semantik shakllanishi masalasi**” deb nomlangan bo’lib, bob uch fasldan iborat. Ilk faslda “*Neologizm-sememali neologizmlar*” tadqiq etilgan.

Bilamizki, badiiy asardagi har bir til birligi o’ziga xos o’rin va mavqega ega bo’ladi. Jumladan, so’z ma’nosining badiiy matndagi mavjud imkoniyatlari xarakter kasb etadi. Badiiy asardagi so’z ma’no doirasining beqarorligi evaziga ham yangi-yangi semalarning yuzaga kelishi (polisemantik so’zlar, omonim so’zlar taraqqiyoti) bilan bog’liq holda kechadi. Rus tadqiqotchisi Y.N.Tinyanova haqli ta’kidlaganidek, “badiiy matndagi so’z buqalamunga o’xshaydi, uning har safar turlicha nozikliklari, ba’zan turlicha bo’yoqlari paydo bo’ladi”<sup>37</sup>.

Ma’lumki, so’zning ma’no imkoniyatlari (genetik ma’no, hosila ma’no, nominativ ma’no, erkin ma’no, bog’li ma’no, o’zak ma’no, yasama ma’no) uning ma’no taraqqiyoti bilan belgilanadi<sup>38</sup>. So’z matnda uzual ma’no ifodasiga ega bo’lsa-da, uning tabiatida okkazional ma’no ifodalash imkoni ham mavjud. Badiiy adabiyot lug’atlarda aks etgan ma’nolar bilan cheklanib qolmay, ba’zi-ba’zida okkazional ma’nolarga – neologizm-sememali individual nutq neologizmlariga ehtiyoj sezadi. Kezi kelganda, ijodkorlar so’zning genetik yoki hosila ma’nosiga tayanib, uning yangicha ma’nosi (neologizm-semema)ni “kashf etadi”.

Leksema semantik strukturasidagi ma’noning soni ko’payishiga misol tariqasida Muhammad Yusufning quyidagi ijod namunasini keltirish mumkin:

*Yo’latmasman yoniga shabbodani,  
Ozodani sevaman men, Ozodani. (“Ozoda”)*

Misrada qo’llangan *shabboda* (shabada) qo’shimcha sema – butunlay yangi ma’no ifodaga ega. *Shabboda* so’zi “yengil, mayin shamol” tarzida izohlanadi. Izohli lug’atda mazkur so’z monosemantik so’z tarzida berilgan<sup>39</sup>. Shoir *shabboda* so’zini ko’chma ma’noda, ya’ni sevgisiga raxna solishi mumkin bo’lgan “har qanday noxush narsa va hodisaga ko’ra” ishlatganligiga guvoh bo’lamiz.

Muhammad Yusufning “Qari qiz” she’ri turmushga chiqmagan qizlarga atab yozilgan. Shoir o’z she’rida bunday qizlar qadrini baland tutadi, ularning hurmati ko’ngil o’ksitadigan har narsadan ustun turishini aytadi. Shoir ularga qarata shunday yozadi: *Yuzlaring g’azal-u, ko’zlaring g’azal/ Sening kuygan ko’ngling guldanda go’zal!* (“Qari qiz”) *G’azal* so’zi manbalarda faqatgina “she’riy janr, lirik she’r” tarzida sharhlanadi, xolos<sup>40</sup>. Misrada esa mazkur so’z “betakror, jozibali” ma’no ifodalarida, “go’zallik tilmsoli” funksional-semantik ma’noda kelganki, bu holatni shoir mahorati, ya’ni so’z tanlash, so’zning qo’shimcha ma’no ifodalarini yarata olish qobiliyati bilan baholash mumkin. Muhammad Yusuf ijodidagi mazkur neologizm-sememalar metaforik xarakterga ega.

<sup>37</sup> Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985. – С. 42.

<sup>38</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 136-143.

<sup>39</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энцикл.си. 2008. – Б. 530.

<sup>40</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энцикл.си. 2008. – Б. 427.

Usmon Azimning “G‘aroyib ajdarho” dostonida *lipillamoq* so‘zi bilan xuddi shunday yangi metaforik neologizm-semema vujudga kelganiga guvoh bo‘lamiz: *Bir ma’no uqqanday/ Cholning so‘zidan/ Quvonch lipillaydi/ Shohning yuzida*. Shoir “quvonch alomatlarining kishida yuz ko‘rsatishi”ni lipillamoq yasama fe‘li orqali ifoda etgan. Mazkur ma’no manbalarda o‘z ifodasiga ega emas<sup>41</sup>. Shuning o‘ziyoq bu semaning neologizm-semema ekanligini ko‘rsatadi. *Lipillamoq* so‘zi voqelikni ravshan, teran yuzaga chiqarishda, qolaversa, asar personajining ruhiy holati, ayni vaqtdagi vaziyati – cholg‘a munosabatini oydinlashtirishda qo‘l kelgan.

Neologizm-semema leksemaning tildagi ma’nosida (asl ma’nosida) mavjud bo‘lmagan, ayrim shaxs (muallif) nutqi uchun xos bo‘lgan, shu matn doirasida muayyan mavqega ega ma’no sanaladi. Bu ma’no Farida Afro‘z she’riyatida ham kuzatiladi: *Endi sening bo‘yningda bilaklarim gullaydi/ Bellarimga chirmashib gul pechaklar bo‘ylaydi*.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *gullamoq* so‘zi uch ma’no ostida izohlanadi: 1) gul ochmoq, gulga kirmoq; 2) ravnaq topmoq, rivojlanmoq, obod bo‘lmoq; 3) gul-gul ochilmoq, go‘zallashmoq, yashnamoq; kamolga yetmoq<sup>42</sup>. Tabiiyki, Farida Afro‘z qo‘llagan “bilaklarim gullaydi” nutqiy qo‘llanish va hosila ma’no lug‘atlarda uchramaydi. Shuning o‘ziyoq matnda qo‘llangan *gullamoq* so‘zi hamda uning ma’nosi butunlay yangiligi (neologizm-semema ekanligi)dan dalolat beradi. “*Endi sening bo‘yningda bilaklarim gullaydi*” tarzidagi ifodani yor vasliga yetgan oshiq e’tirofi deya baholash mumkin. Misoldagi *gullamoq* so‘zi asl (bosh) ma’nodan emas, balki hosila ma’no (“ravnaq topmoq, rivojlanmoq, obod bo‘lmoq”) dan o‘sib chiqqan. Bu kabi yangilik bo‘yog‘iga ega ma’no ifodalar (neologizm-sememalar) biz qo‘llab yurgan uzual ma’nolardan bir necha bor ko‘p.

Uchinchi bobning “*Individual-uslubiy ayrim ko‘chimlar va o‘xshatishlar tadqiqi*” deb nomlangan ikkinchi faslida muallif yaratgan individual-uslubiy ko‘chimlar hamda o‘xshatishlar haqida so‘z boradi. Ko‘chimlar tilning rivojlanishida, uning ifoda imkoniyatlarining kengayishida muhim unsur sanaladi. Yangi ma’no va bo‘yoqlarning paydo bo‘lishi, polisemiyaning vujudga kelishi, emotsional-ekspressiv leksikaning boyishiga xizmat qiladi<sup>43</sup>. Ma’lumki, ko‘chimlar so‘zlar kabi o‘z lingvopoetik xususiyatiga ko‘ra doimiy (uzual) va individual xarakterda bo‘ladi. Ular matnda obrazlilik va ifodaviylikni ta’minlash bilan birga, lug‘at qatlamimizning turli ma’no ifodalar bilan boyishiga ham xizmat qila oladi.

Muhammad Yusuf she’rlaridagi ko‘chimlarga misol sifatida *Ilk sevgi mo‘ralar* to‘rt burchagidan. (“Bir kecha”), *Hamma yulduz menga mo‘ltirar* (“Mana shu – men tug‘ilgan go‘sha”), *Saharlardan shudring – sharob icharlar*. (“Kapalaklar”), *G‘anim ekan menga sayoq nigohim/ Yuragimni qitiqlar*, qilmas pisand. (“Hali bilmay sonsiz gunohlarimni”), *Nigohim jayhundan sakrab o‘tsa sal* (“Sodda Muhammadman”), *Senga qarab ko‘zim pishmoqda* (“Bahorda ko‘p og‘ir”) kabilarni keltirish mumkin.

Usmon Azimning she’riyatida: *Ufqqa tirmashar chaqaloq bahor* (“Fevralning oxiri. Hali izg‘irin”), *Vatanning ko‘zini* men izlab topdim. (“Surat parchasi haqida doston”), *Yam-yalang‘och yotar saraton...*(“Yoz”), *Yurakni so‘ysalar* – topilmas guvoh. (“Nima ham berardim men senga, dunyo”), *Riyoning labiga qimtilgan* – o‘jar. (“Fevralning oxiri. Hali izg‘irin”) tarzidagi ifodalar uchraydi.

<sup>41</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энцикл.си. 2006. – Б. 500.

<sup>42</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энцикл.си. 2006. – Б. 519.

<sup>43</sup> Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоетик хусусиятлари (метафорик ҳодисалар мисолида): Филол. фан. номз. ...дисс. – Қарши, 2019. – Б. 38.

Farida Afro‘z ijodidagi o‘ziga xos ko‘chimlar sirasiga quyidagilar mansub: *nochorlik sharobin* yutgil. (“Burgut bo‘lsang...”), *Sen esa ro‘zg‘oring loyiga botding*. (“Opa”), *Xayolning cho‘llari* bepoyon. (“Yuragim, sanchima, og‘rima”), *Muzlatmasin armon shamoli*. (“Ostonaga qarilik keldi”), *Dilimni kuyladim, dilimni chaldim*. (“Yigirmaga kirdi”), *Kulgilaring hidlari* kelar. (“Ancha bo‘ldi”).

O‘xshatishlar jonli so‘zlashuv tili hamda badiiy matnda keng qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. O‘xshatish etaloni o‘xshatish konstruksiyasining poetik qimmatini, estetik salmog‘ini belgilaydi. O‘xshatish etaloni qanchalik original bo‘lsa, o‘xshatish konstruksiyasi ham shu darajada ohorli bo‘ladi.

Erkin o‘xshatishlar ijodkor mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi. Masalan, o‘zbek she‘riyatida *sevgi*, *muhabbat*, *ishq* so‘zlari ko‘pgina narsa-hodisalarga qiyoslangan. Mazkur so‘zlarning epitetlari sifatida *o‘t kabi* (muhabbat, sevgi, ishq), *nurdek* (muhabbat), *tog‘dek* (sevgi, muhabbat) kabi uzual o‘xshatishlar tez-tez qo‘llangani kuzatiladi. Shu bilan birga, *sevgi* so‘ziga nisbatan o‘zagacha mualif nutqi o‘xshatishlari ham yaratilmoqda:

*Sevgi go‘yo – lolaqizg‘aldoq,*

*Sevgi go‘yo – g‘arq pishgan shotut.* (M.Yusuf, “Sevgi”).

Bunda shoirning o‘xshatish etaloni o‘ta original. Ma‘lumki, *lolaqizg‘aldoq* ham, *g‘arq pishgan shotut* ham tabiatan o‘ta nozik, ya‘ni noxos qo‘l tegishi bilan to‘kilib ketadi, nobud bo‘ladi. Xuddi mana shu tabiiy jihatiga ko‘ra sevgi so‘ziga epitet sifatida keltirilgan.

Usmon Azim o‘z she‘rlarida *yurakni* qushga (*Ko‘ksimda bir qush bor – uchadi tinmay*), *shoirni* boychechakka (*Shoirilar erta tug‘iladilar/ Bahorning to‘ng‘ichi boychechakday*), *tunni* bokira qizga (*Tug‘ilmoqda tun. Hali o‘pilmagan – ma‘sum, bokira*), *quyoshni* Barchinoyga (*Porlar quyosh – Barchinday bir qiz*) o‘xshatadi.

Farida Afro‘z “Dunyo” she‘rida dunyoning o‘xshatishlari sifatida “*chalajon go‘dak*”, “*eski qayrag‘och*”, “*dastasiz ketmon*”, “*chumoli uya*” kabi erkin o‘xshatishlarni qo‘llaydi. Ko‘rinadiki, bu kabi o‘xshatishlar favquloddaligi, originalligi bilan o‘quvchiga tez ta‘sir ko‘rsatadi, muayyan bir vaziyat, ruhiy va jismoniy holat, narsa-hodisani kitobxon ko‘z o‘ngida ravshan gavdalandira oladi.

Uchinchi bobning uchinchi bo‘limi “*Individual-uslubiy neologizmlarning leksikografik tavsifi*” deya nomlanadi. Tilning ichki manba asosida boyishi bevosita so‘z yasaliş imkoniyatlari bilan bog‘liq. Lekin “bugungi kunda o‘zbek tili leksikasining zaxira boyligini oshirishda yangi so‘z hosil qilish yo‘llarining muhimligini belgilaydigan statistik tadqiqotlar uchramasligi”<sup>44</sup> bu boradagi ishlar ko‘lami sust kechayotganligini ko‘rsatadi.

Bilamizki, o‘zbek tili lug‘at qatlamining boyishida ijodkorlarning o‘rni katta. Ular yaratgan so‘z va iboralar, tasvirlar evaziga lug‘at fondi boyib boradi. Albatta, lug‘atlar nutqiy hosilalarni emas, lug‘aviy birliklarni qamrab oladi. Biroq har qanday lug‘aviy birlikning “dunyoga kelishi” nutq bosqichi bilan belgilanadi.

Lug‘atshunoslik nuqtayi nazardan ayta olamizki, individual-uslubiy neologizmlarning lug‘atlarda o‘z belgisiga ega bo‘lishi, qamrovi masalasi, bizningcha, quyidagi omillar: a) o‘zbek tili so‘z yasaliş me‘yorlariga muvofiq holda paydo bo‘lishi; b) so‘z yasalişning faol modellari asosida yuzaga kelishi; d) nomlanmagan tushuncha (leksik lakuna) o‘rnini bosa olish imoniyatiga ega bo‘la olishi; e) fikrni aniq, ravshan ifoda eta olish imkoniyati kengligi, o‘z navbatida, uslub (badiiy uslub)ga xoslanishi; f) struktur-

<sup>44</sup> Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монографиya. – Қарши: INTELLEKT нашриёти, 2022. – Б. 49.



semantik jihatdan barqarorlashib, leksemalashish sari siljigan bo'lishi; g) jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinib, ijtimoiylashgan bosqichga o'ta olish imkoniyati yuqori bo'lishi; h) dastlab individual nutq neologizmlari lug'ati yoki muallif asarlari lug'ati orqali saralanishi bilan bog'liq holda kechadi. Aniqrog'i, individual-uslubiy neologizmlar jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsagina ijtimoiylashgan bosqichga o'tgan bo'ladi. Xulosa chiqadiki, ularni to'g'ridan to'g'ri umumiy yoki maxsus lug'atlarda belgilash emas, balki dastlab individual nutq neologizmlari izohli lug'ati orqali saralanib, keyingi bosqichda yangi avlod izohli hamda imlo lug'atlari, qolaversa, katta hajmli tezauruslarigacha kirib bora olishini nazarda tutish lozim.

Muhammad Yusuf ijodidan kuzatamiz: 1. *Shoir o'lsa, kim ham kuyunar deysiz/ Madhiyaboz hozir suvarakdan ko'p.* ("Xavotir") 2. *Men shoir emas, men nazmboz kosib/ She'rim shuhratimga emas munosib.* ("Yalpiz") 3. *Eslamasa nima, men bir to'pori/ Qishloqi so'zbozni, osmon yiqilmas.* ("Ertak") Mazkur misollardagi madhiyaboz, nazmboz, so'zboz muallif nutqi neologizmlari *safsataboz, qimorboz, masxaraboz* kabi so'zlar qolipi asosida yuzaga kelgan.

**madhiyaboz** – misrada salbiy ma'no ifodasi uchun qo'llangan bo'lib, quruq gap sotishni yoqtiradigan, yolg'on-yashiq va'dalar beradigan, soxta vatanparvar shaxs ma'no ifodasiga ega.

**so'zboz/ nazmboz** – so'z va uning turli shakllari, ma'no ifodalarini yuzaga chiqarishga usta; kinoyali, tagma'nolar yarata oladigan, til sezgirligi yuqori bo'lgan shaxs. She'rda mazkur so'zlar salbiy ma'no ifodasi (kinoya) uchun ishlatilgan.

Badiiy asar ijodiy jarayon mahsuli bo'lib, ham shaklan, ham mazmunan yangicha hosila ma'noni yaratish ikki karra ijodkorlik, izlanish, topqirlikni talab etadi. Bu jarayonda ijodkorlar til fondida tayyor, mavjud bo'lgan birliklardan foydalanishdan ko'ra o'zlarining badiiy-estetik idealiga mos keladigan so'zlarni yaratadilar. Maqsadli, o'rinli, jo'yali "yaratmalar" o'quvchini o'ziga chorlaydi, unga estetik zavq bag'ishlaydi.

## XULOSA

1. Til lug'at qatlamida o'zlashma so'zlarning miqdor va sifat jihatdan ortishi shu tilning milliy tabiatiga ham ta'sir etmay qo'ymaydi. Har bir xalq o'z ona tili milliyligini saqlab qolishga intilayotgan ayni davrda kunora paydo bo'layotgan zamonaviy o'zlashmalar masalasi alohida xarakter kasb etadiki, ularni tilimizning turkona tabiatiga muvofiq holda, tilning ontologik xususiyatlaridan kelib chiqib qabul qilish har doimgidan ko'ra dolzarb hisoblanadi.

2. Individual-uslubiy neologizmlar "umumiy neologizm" hodisasining tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur hodisa til lug'at qatlamining boyishida muhim o'rin tutadi. Individual-uslubiy neologizmlar o'zbek tilida so'z yasash ma'nosi – unumli so'z yasash qoliplari, yasama so'zning til va nutqqa munosabati bilan bog'liq. Bu jarayonda fe'l, ot, sifat, ravish so'z turkumlarining yasash imkoniyatlari turli darajada bo'lib, nutqiy yasama so'zlar miqdori unumli so'z yasash qoliplari bilan belgilanadi.

3. Manbalarda o'zbek tili so'z yasovchi affikslari sifatida o'nlab qo'shimcha shakllar sanaladi. Kuzatishlar ko'rsatdiki, bugungi kunda ularning ma'lum bir qismigina so'z yasashda xizmat qilmoqda. Tadqiqotimiz asosi bo'lgan ijodkorlar she'riyati misolida ayta olamizki, bu jarayonda [ot+la/lan/lash], [ot+chi], [ot+dosh], [ot+zor], [ot+furush], [ot+kor], [ot+iston], [ot+li], [ot+siz], [ot+ona], [ot+chasiga] so'z yasash qoliplari faol ishtirok etadi. Bunda so'z yasash asosi sifatida narsa/ shaxs/ o'rin-makon/ mavhum ot va ayrim sifatlar keladi. Qo'shma shakldagi individual-uslubiy neologizmlarning so'z yasash qoliplari

sifatida [ot+ot], [ot+fe'l], [fe'l+ot], [sifat+ot], [umum/xush+ot], [ot+zoda/bardor/dil] kabilarni keltirish mumkin.

4. O'zbek tilshunosligida neologizm hodisasi doirasida "yangi leksika", "sof yangi leksika", "faollashgan leksema", "umumtil neologizmi", "muallif (nutqi) neologizmlari", "individual nutq neologizmlari", "okkazionalizm" kabi terminlar uchraydi. Shuningdek, "individual-uslubiy neologizm", "individual-stilistik neologizm", "maromsiz yasamalar" tarzidagi qo'llanishlar ham kuzatiladi. Bularning umumiy jihatlari o'zaro uzviylik kasb etsa-da, har biri alohida-alohida kuzatish obyekti ham bo'la oladi.

5. Individual-uslubiy neologizmlarning yorqin ko'rinishlari sodda va qo'shma yasama so'zlar, neologizm-semema, frazeologik-neologizm, tasviriy ifoda, murojaat birliklari, ko'chimlar, erkin o'xshatishlar kabi shakl va mazmunda bo'ladi. Bu kabilar tilning rivoji, til ifoda imkoniyatlarining kengayishida muhim hisoblanadi. Ular nafaqat leksik, balki morfologik, sintaktik, uslubiy sathlar bilan aloqador, umuman, yaxlit til sistemasi bilan munosabatda turadi.

6. Kuzatilgan turlicha struktur-semantik individual-uslubiy neologizmlar tadqiqotimiz obyekti bo'lgan ijodkorlar she'riy nutqi uchun xos bo'lib, adabiy til me'yorlari nuqtayi nazardan o'quvchiga okkazional tuyulsa-da, o'zbek tili uchun umumiy bo'lgan, ijtimoiy xoslangan me'yoriy derivatsion qoliplar asosida paydo bo'lganligi sababli adabiy me'yor doirasida turadi.

7. Tadqiqotimiz asosi bo'lgan ijodkorlar asarlari misolida baholaydigan bo'lsak, individual-uslubiy neologizmlar "favqulodda so'z yaratishga bo'lgan ehtiyoj", "she'riyatda qofiyani va she'riy ritmni ta'minlash", "bir umumiy ma'no ostidagi so'zlarga bo'lgan ehtiyoj", "original murojaat birliklarini yaratishga bo'lgan urinish", "soddalanish mahsuli", "til birliklarining integrativ munosabati ta'siri", "varvar so'zlardan chekinish" va h.k.lar maqsadida yuzaga kelganligi kuzatiladi.

8. Tilning lug'at qatlami boyishining ichki imkoniyatlari sifatida so'z semantik tuzilishidagi u yoki bu semani faollashtirish, butunlay yangicha nutqiy ma'no ifodalarni yaratish, ya'ni leksemaning sema mundarijasini kengaytirish, leksema semalarini muayyan tushunchaga ixtisoslashtirish kabilar muhim o'rin tutadi. Natijada neologizm-sememalarning safi boyib boradi. Bu jarayonning dastlabki bo'g'ini ijodkorlar faoliyati bilan bog'liq.

9. Individual-uslubiy neologizmlarning ommalashishi kishilik jamiyatining shu so'zga bo'lgan u yoki bu darajadagi ehtiyoji bilan bog'liq. Mazkur so'zlar umumiy neologizmning bir turi bo'lganligi tufayli so'nggi, ya'ni barqarorlashish davrigacha yangilik bo'yog'ini sekin-asta yo'qotib boradi, ijtimoiylashish bo'g'inida lisoniylashgan darajani kasb etadi. Ular o'zbek tili qonuniyatlariga bo'ysunsa, til lug'at qatlamidan o'rin egallaydi.

10. Individual-uslubiy neologizmlar jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsagina ijtimoiylashgan bosqichga o'ta oladi. Xulosa chiqadiki, individual-uslubiy neologizmlar to'g'ridan to'g'ri umumiy yoki maxsus lug'atlarda belgilanishi emas, balki dastlab individual nutq neologizmlari izohli lug'ati orqali saralanib, keyingi bosqichda yangi avlod izohli hamda imlo lug'atlarida o'z belgisiga ega bo'ladi, shuningdek, katta hajmli tezauruslarga kirib bora oladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**МАРДОНОВА САРВИНОЗ ОРИПОВНА**

**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ  
ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ В  
УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ  
(на примере поэзии Мухаммада Юсуфа, Усмона Азима и  
Фариды Афруз)**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Бухара – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/Fil2813.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))

**Научный руководитель:**

**Асадов Тулкин Хамроевич**  
кандидат филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Гайбуллаева Нафиса Изатуллаевна**  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Абдиев Муродкосим Болбекович**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Ведущая организация:**

**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в «\_\_\_» часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 100118, город Бухара, улица Мухаммад Икбол, 11. Тел: +99865 221-29-14; факс: +99865 221-27-57; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). Адрес: 100118, город Бухара, улица Мухаммад Икбол, 11. Тел: +99865 221-25-87).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года

(Протокол реестра рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года).



**Ё.Саидов**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**А.Ахмедов**

учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, профессор

**М.Абузалова**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В лексическом слое мирового языкознания неологизмы особое место занимают. Ведь развитие общества, межкультурных и межъязыковых отношений, рост масштабов мышления человечества обуславливают чрезвычайное появление в словарном слое новых понятий, а также общих неологизмов и индивидуальных неологизмов, что служит важным фактором последовательного развития лексического слоя каждого народа. Учитывая, что данной обстоятельство не только служит языковой перспективе, но и в той или иной степени может повлиять на ее национальность, исследование сферы их смысловых отношений является актуальной задачей.

В период, когда народы мира стремятся сохранить будущее своего языка, его национальную природу, отношение к лексическим неологизмам, значительно возрос, интерес к изучению отдельных индивидуально-стилистических неологизмов, служащих обогащению языка внутренним ресурсом, расширился круг действий. В поэтической речи творческо-личностные применения по мере возможности имеют важное значение при выполнении стилистико-эстетической задачи, речевые производные, определяющие индивидуальный стиль автора, индивидуально-стилистические неологизмы, возникающие с целью раскрытия, выражения художественного замысла как части языка произведений писателя, а также при решении проблем обогащения языка внутренними возможностями.

Позитивные изменения, происходящие в нашей стране во всех сферах, открывают широкие возможности для обогащения нашего родного языка на основе внешних и внутренних возможностей. При этом крайне важно полное соблюдение онтологических своеобразий узбекского языка. Потому как «сегодня, в эпоху глобализации, для каждого народа, любого независимого государства естественно уделять первоочередное внимание вопросам обеспечения своих национальных интересов, сохранения и развития своей культуры, вековых ценностей, родного языка»<sup>45</sup>. С этой позиции, сбор, классификация, обобщение и подытоживание на примере произведений писателей индивидуально-стилистических неологизмов, личностно-творческих творений, являющиеся воплощением мощи языка художественного произведения, их проявления в различных формах – ритмических и неритмических речевых производных, являющиеся производными словообразовательных форм морфологического, морфолого-синтаксического, лексико-семантического способов, оригинальных, соответствующих нормам словообразования, в то же время не охватываемые ни одним словарем также приобретает важное значение в наблюдении за нашим родным языком.

Данное диссертационное исследование в определенной степени окажет практическое содействие выполнению задач, отраженных в Указах Президента Республики №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению престижа и положения узбекского языка как государственного» от 21 октября 2019 года, №УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» от 20 октября 2020 года, №УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года,

---

<sup>45</sup> Указ Президента Узбекистана № УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного” от 21 октября 2019 года.// [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2020 года и в других нормативно-правовых документах имеющих отношение к данной сфере деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. “Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информатизированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”

**Степень изученности проблемы.** Выражение языковых возможностей языка в художественном творчестве, в частности, творческо-личностное высказывание конкретного писателя изучается исследователями в различных аспектах. Изучение индивидуально-стилистических неологизмов непосредственно связано с изучением общих неологизмов. В мировой лингвистике при изучении неологизмов опираются на длительные исторические предпосылки. В частности, в работах таких ученых как И.А.Бодуэн де Куртене, Л.П.Ефремов, Р.А.Будагов, Н.С.Авилова, Э.А.Рейст, В.В.Виноградов, Г.Г.Тимофеева, Л.П.Крысин, В.М.Аристова были исследованы неологизмы (заимствования)и связанные с ним вопросы<sup>46</sup>.

В узбекском языкознании индивидуально-стилистические неологизмы обычно изучаются как окказиональные единицы, и эти исследования можно трактовать с разделением на две части: 1) монографические исследования, связанные с теоретическими аспектами творческо-личностного применения – языковыми факторами; 2) исследования, которые в той или иной степени имеют значение при лингвопоэтическом исследовании произведений определенного писателя.

В рамках первого направления можно отметить исследования таких исследователей как С.Тошалиева, М.Юлдашев, О.Тухтасинова<sup>47</sup>. Следует отметить, что авторские взгляды на индивидуально производные также частично отражены в учебниках, в которых исследуются явления лексики и лексикографии узбекского языка<sup>48</sup>.

В исследованиях, проведенных по второму направлению, отмечается, что отдельные неологизмы с окраской новизны в творчестве какого-либо поэта и

---

<sup>46</sup> Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. В 2 томах. Том II. – Москва: АН, 1963. – 365с.; Ефремов Л.П. Сущность лексического заимствования и основные признаки освоения заимствованных слов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Алма-Ата: 1959. – 22 с.; Будагов Р.А. Толковые словари в национальной культуре народов. – Москва: МГУ. 1989. –151 с.; Авилова Н.С. Слова интернационального происхождения в русском литературном языке нового времени (глаголы с заимствованной основой). – Москва: 1967. – 246 с.; Рейст Э.А. Зависимость формы иностранных слов от языка-источника и языков-посредников в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Таллин: 1966. – 26с.; Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избр. тр. – Москва: 1977. – 312 с.; Тимофеева Г.Г. Новые английские заимствования в русском языке. Написание. Произношение. СПб.: Юна, 1995. – 108 с.; Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Наука, 1968. – 208 с.; Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. – Москва: Высшая школа. 1978. – 113 с.

<sup>47</sup>Тошалиева С.Н. Ўзбек тилида окказионал сўз ясалиши: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. –Т., 1998. – 25 б.; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри....дисс. автореф. – Т., 2009. – Б. 34-35.; Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ....дисс. автореф. – Т. 2007. – 24 б.

<sup>48</sup> Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б.152-157.; Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. –Т.: Fan va texnologiyalar, 2010. – Б. 111.

писателя трактуются в разной степени. В частности, примечательны в этом отношении исследования таких лингвистов как, М.Мухиддинов, С.Каримов, М.Ёкуббекова, М.Косимова, Д.Шодиева, Д.Шодмонова<sup>49</sup>. Однако в этих работах специально не исследованы и не систематизированы языковые факторы возникновения индивидуально-стилистических неологизмов, условия и необходимость в них, их формальные и содержательные типы, лексикографическая трактовка, в частности неологизм-семема.

**Связь исследования с планами научно-исследовательской работы высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация.** Диссертация выполнена в соответствии с составной частью плана научного исследования по теме «Исследование отношений языка, личности и общества».

**Цель исследования** состоит в изучении языковых факторов, причин, деривационных особенностей, структурно-семантического характера, вопроса семантической формации, особенностей значения возникновения индивидуально-стилистических неологизмов.

**Задачи исследования.** Исходя из этой цели, были определены следующие научные задачи:

определение места неологических единиц в лексической системе;

осветить вопрос о статусе индивидуально-стилистических неологизмов в обогащении узбекского языка на основе внутреннего ресурса, установить продуктивные и непродуктивные словообразовательные шаблоны в разрезе частей речи, осветить отношение речевой производной к языку и речи;

выявление языковых факторов, необходимости и объема образования индивидуально-стилистических неологизмов;

исследование, классификация и характеристика структурно-морфологических, структурно-синтаксических, деривационно-семантических аспектов индивидуально-стилистических неологизмов;

